

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O'QITISH

Qosimov Ashurali Tojiboyzoda

Qo'qon davlat pedagogika instituti, Xorijiy tillar fakulteti,
IV-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7298465>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorijiy tillar, xususan Ingliz tilining jamiyatimiz hayotidagi tutgan o'rne, boshlang'ich sinflarda Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsion usullarni qo'llash, chet tillarini o'qitilishiga mamlakatimizda yaratilayotgan imkoniyatlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: rivojlangan davlatlar, ochiqlik siyosati, global bozor, qiziqarli o'yinlar, metodlar, multfilmlar, "pantamima", umumta'lim maktablar.

Ma'lumki, Ingliz tili hozirgi kunda dunyo bo'ylab keng miqyosda tarqalib borayotgan xalqaro til sanaladi. Bugungi tezkor rivojlanayotgan davrda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o'sib bormoqda. Har bir sohada taraqqiyot ilgari qadam tashlamoqda. Xususan, ilm-fanda ham katta o'zgarishlar, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Har bitta fanni yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib talabalarga, o'quvchilarga yetkazib berish bugungi kundagi ta'limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Xususan xorijiy tillarni o'rganishga yaratilayotgan shart-sharoitlarni oladigan bo'lsak. Boshqa rivojlangan va rivojlanib borayotgan mamlakatlar bilan bir qatorda yurtimizda ham chet tillarga qaratilayotgan e'tibor davlat siyosiyati darajasiga ko'tarilgan. Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rib egallashga intilayotgan yurtimiz uchun, xorijlik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan millatimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov tomonidan 2012-yil 10 -Dekabrda qabul qilingan "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"-gi PQ-1875 sonli qarorini keltirish mumkin. Ushbu qarorga muvofiq chet tillarini, asosan, ingliz tilini boshlang'ich sinfdan boshlab o'rgatish, ularni xorijiy tillarni o'rgatishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish uchun barcha umumta'lim maktablarda 1-sinfdan boshlab ingliz tili darslarini turi xil qiziqarli o'yinlar tarzida o'qitish va shu bilan birga o'quvchilarning og'zaki nutqini ham rivojlantirish, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'qitishni zamonaviy, innovatsion usullar orqali o'tish bosqichma-bosqich boshlandi. Hozirgi kunda ingliz tilini o'rganadigan har qanday yoshdagi odamlar soni juda ko'paymoqda.

Boshlang'ich sinflarda, ayniqsa birinchi sinfdan o'quvchilarga xorijiy tillarni o'rgatishda o'quvchining yoshi, fiziologik, psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Qarorda ta'kidlanganidek, birinchi sinflarda o'yin

tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida chet tillarini o'rgatishni amalga oshirish, haqiqatdan, kichik yoshdagi o'quvchilarga mosligidir.

Xitoy ixtirochilaridan biri Masaru Ibuka o'zining mashhur "Ushda keyin juda kech" kitobida yozganidek: "...bolaning miyasi cheksiz miqdordagi ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin...". Yana shunga e'tibor qaratishimiz kerakki, 6-7 yoshdagi bolalar ma'lumotlarning ma'nosini tushuni emas, uni mexani tarzda yodlaydi. Shuning uchun ham Ingliz tilini o'rganishni boshlagan boshlang'ich sinf o'quvchilariga tilni o'rgatishni Grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik kerak. Aks holda til o'rgatishning ilk qadamidanoq bolani charchatishi va til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini, qiziqishini o'ldirib qo'yishingiz mumkin. Chunki boshlang'ich sinfdagi o'quvchilarga xorijiy tillarni o'rgatish qiyin shu bilan birgalikda juda mas'uliyatli vazifadir. Shuning uchun til o'rgatuvchilar boshlang'ich sinf o'quvchilarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli orgatish uchun quyidagi metodlar va o'yinlardan foydalanish mumkin:

- "Warm-up exercises"(Chigal yozdi mashqlar)-o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun har xil o'yinlardan foydalanish;
- Multifilm orqali o'rgatish-ma'lumki bolalar multifilm ko'rishga qiziqishadi. Ingliz tilidagi multimlarni ko'rish jarayonida undagi so'zlarni tushunmasligi mumkin, ammo multifilm qahramonlarining hatti-harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga intilishadi;
- Qiziqarli o'yinlar orqali. Ta'limda oyin texnologiyalardan foydalanish eng samarali va foydali vositalardandir. Ingliz tilini o'qitish va o'rgatishda turli xil o'yinlar orqali o'rgatishning o'rni beqiyosdir. Dars davomida turli qiziqarli o'yinlar o'ynatib turish sinfda o'sha fanni o'rganishga ishtiyoqni orttirib boradi. O'yin davomida ularning tafakkuri, dunyoqarashi, fikrlashi kengayib boradi. Olimlar ta'limga o'yin orqali yondashuv ta'lim jarayonini osonlashtiradi deb hisoblaganlar. O'yin tarzidagi darslar bolalarning og'zaki nutqini rivojlanishiga yordam beradi. Quyidagi o'yinlar bunga misoldir:
 - ❖ "Pantomima"-bunda o'qituvchi o'quvchilarg biror bir so'zni aytadi va o'quvchi uni korsatadi. Qolgan o'quvchilar esa so'zni topib, inglizcha nomini aytish kerak bo'ladi.
 - ❖ "Quvnoq topishmoqlar"(Merry Riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish ingliz tilini orgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar.
 - Qo'shiq va she'rlar orqali tushunish yoki eslab qolish qiyin bo'lgan so'zlarni musiqaga solib kuylash. Bunda yangi so'zlarni eslab qolish bilan birga, bolaning og'zaki nutqi ham rivojlanadi. Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali va foydali ekanligini ko'rsatish mumkin.
 - Ko'rish orqali eslab qolish- ma'lumki bolalar eshitgan narsalaridan ko'ra ko'proq ko'rgan predmetlarni eslab qolishadi. Shunday ekan, darsda

turli xil qiziqarli ko'rgazmali qurollar, plakatlar, rasmlarga yozish orqali kundalik hayotimizda ishlatadigan so'zlarni o'rgatish va o'rgangan so'zlar orqali gaplar tuzish. Masalan, kitob(book), doska(blackboard), ruchka(pen), qalam(pencil) va h.z. Kundalik hayotimizda ishlatiladigan bunday narsa-pedmetlar ko'zga doimo tushib turishi va har doim qo'llanilishi bois, bola bu so'zlarni ixtiyorsiz tarzda o'rganadi.

➤ “Hikoya zanjiri” (A chain story) usuli o'quvchilarning og'zaki nutqini oshirishda va xotirani mustyahkamlashda yordam beradi.

➤ “When pictures speak”(Rasmlar gapirganda)- usuli ancha qulay usul hisoblanib, ingliz tilini o'rgatishda, o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga doir rasmlardan foydalanish lozim.

Xulosa qilib shuni aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarga til o'rgatishni majburiyat sifatida emas, balki qiziqarli o'yinlar va innovatsion metodlardan foydalangan holda olib borishi, ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun, ta'lim tizimimiz ham o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'laak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali va unumli foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqish bilan o'z hissamizni qo'shishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) www.e-library.namdu.uz
- 2) www.cyberleninka.ru
- 3) www.kopilkaurokov.ru
- 4) www.scienceweb.uz
- 5) www.sciencebox.uz